

## XI. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

### Navoiy viloyati va hududlarning tashkil topgan yillari hamda ularning markazlari


	<i>Tashkil topgan yil</i>	<i>Viloyat va tuman, shaharlar markazlari</i>	<i>Yer maydoni, ming. kv. km.</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>27.01.1992-y.</b>	<b>Navoiy sh.</b>	<b>111,1</b>
Navoiy sh.	1958-y.	Navoiy sh.	0,06
Zarafshon sh.	1972-y.	Zarafshon sh.	0,02
G'ozg'on sh.	03.05.2019-y.	G'ozg'on sh.	0,59
Karmana t.	09.09.1926-y.	Karmana sh-cha.	0,94
Konimex t.	29.12.1965-y.	Konimex sh-cha.	9,25
Qiziltepa t.	07.12.1970-y.	Qiziltepa sh.	2,19
Navbahor t.	12.03.1980-y.	Beshrabot sh-cha.	1,57
Nurota t.	29.09.1926-y.	Nurota sh.	5,94
Tomdi t.	03.07.1927-y.	Tomdibuloq sh-cha.	42,49
Uchquduq t.	25.03.1982-y.	Uchquduq sh.	46,63
Xatirchi t.	03.12.1964-y.	Yangirabot sh.	1,42

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil 1- oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 050,1 ming kishini tashkil etdi va yil boshidan 16 260 kishiga yoki 1,6 foizga ko'paydi.

**Doimiy aholi soni<sup>1)</sup>**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga birlikda)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>1 kv. km ga to‘g‘ri keladiganlar soni</i>
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>	
<b>Jami</b>	<b>1 050 117</b>	<b>514 314</b>	<b>535 803</b>	<b>9,5</b>
Navoiy sh.	154 941	154 941	-	2 582,4
Zarafshon sh.	86 252	86 252	-	4 312,6
G‘ozg‘on sh.	9 050	9 050	-	15,3
Karmana t.	134 887	44 161	90 726	143,5
Konimex t.	37 224	17 019	20 205	4,0
Qiziltepa t.	158 467	49 626	108 841	72,4
Navbahor t.	118 317	16 836	101 481	75,4
Nurota t.	87 582	49 747	37 835	14,7
Tomdi t.	15 730	5 118	10 612	0,4
Uchquduq t.	38 912	34 050	4 862	0,8
Xatirchi t.	208 755	47 514	161 241	147,0

## Жами аҳоли сони 1 050 117 киши




## Aholining tabiiy harakati 2022- yil yanvar- sentabr

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 aholiga nisbatan (promille)</i>	
	<i>2021-y.</i>	<i>2022-y.<sup>1)</sup></i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2021-y.</i>	<i>2022-y.<sup>1)</sup></i>
Tug'ilganlar	19 942	19 652	-290	26,1	25,2
O'lganlar	3 717	3 176	-541	4,9	4,1
Tabiiy o'sish	16 225	16 476	251	21,2	21,1
Nikohlar	6 899	6 335	-564	9,0	8,1
Ajralishlar	920	1 060	140	1,2	1,4

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot

## Har 1 000 aholiga nisbatan tabiiy harakati (promille)



**Tug'ilish darajasi.** 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida tug'ilganlar soni 19 652 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (19 942 kishi) nisbatan 290 taga kamaygan. Tug'ilish koeffitsiyenti mos ravishda 25,2 promilleni tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (26,1 promille) nisbatan kamayganini ko'rsatmoqda.

Tug'ilish darajasi viloyatning Navoiy shahrida (24,8 dan 34,1 promillega) va Tomdi (15,3 dan 15,7 promillega) oshgan bo'lib, aksincha kamayish Zarafshon shahrida (25,0 dan 23,7 promillega), G'ozg'on shahrida (25,2 dan 15,8 promillega), Uchquduq (25,6 dan 24,1 promillega), Konimex (22,7 dan 18,5 promillega), Nurota (29,1 dan 23,9 promillega), Qiziltepa (23,5 dan 22,2 promillega), Navbahor (25,1 dan 22,7 promillega), Karmana (28,3 dan 25,7 promillega) va Xatirchi (29,1 dan 25,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.


**O'lim darajasi.** 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida o'lganlar soni 3 176 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (3 717 kishi) nisbatan - 541 taga kamaydi. O'lim koeffitsiyenti mos ravishda 4,1 promilleni tashkil qildi (2021- yil yanvar- sentabr oylarida 4,9 promillega) teng bo'lgan.

O'lganlar soni Tomdi tumanida (4,2 dan 4,5 promillega) ko'paygan bo'lib, aksincha kamayish Navoiy shahrida (5,7 dan 5,0 promillega), Konimex tumanida (6,2 dan 4,8 promillega), Nurota tumanida (5,3 dan 4,6 promillega), Zarafshon shahrida (3,9 dan 2,9 promillega), Qiziltepa tumani (4,2 dan 3,8 promillega), Navbahor tumanida (4,9 dan 3,9 promillega), Karmana tumanida (5,2 dan 4,7 promillega), Xatirchi tumanida (4,7 dan 3,7 promillega), Uchquduq tumanida (4,3 dan 3,2 promillega) va G'ozg'on shahrida (4,4 dan 0,9 promillega) kuzatildi.


**Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**  
(Yanvar- sentabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021</i>	<i>2022</i>	<i>2021</i>	<i>2022</i>
<b>Jami</b>	<b>6 899</b>	<b>6 335</b>	<b>920</b>	<b>1 060</b>
Navoiy sh.	1 163	1 160	226	236
Zarafshon sh.	517	511	100	103
G‘ozg‘on sh.	24	42	3	3
Karmana t.	970	806	150	181
Konimex t.	205	189	24	39
Qiziltepa t.	958	922	103	102
Navbahor t.	712	666	104	108
Nurota t.	565	521	37	54
Tomdi t.	45	37	3	8
Uchquduq t.	243	215	39	42
Xatirchi t.	1 497	1 266	131	184

**Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlarda hududlarning ulushi, % da**



## Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlarda hududlarning ulushi, % da



**Nikohlar va ajralishlar.** 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida FHDYo organlarida 6 335 ta nikohlar va 1 060 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 8,1 promille nikoh (2021-yilning tegishli davrida 9,0 promille) va 1,4 promille ajralishlar (2021-yilning tegishli davrida 1,2 promille) ga to'g'ri keldi.

Tuzilgan nikohlar viloyatning G'ozg'on shahar (3,6 dan 6,2 promillega) oshgani kuzatildi.

Nikohdan ajralganlar viloyatning Konimex (0,9 dan 1,4 promillega), Tomdi (0,3 dan 0,7 promillega), Xatirchi(0,9 dan 1,2 promillega), Karmana (1,5 dan 1,8 promillega), Nurota (0,6 dan 0,8 promillega) va Uchquduq (1,4 dan 1,5 promillega), tumanlarida oshgani kuzatildi.

### Aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari (Yanvar- sentabr oylarida 1 000 aholi soniga nisbatan)

	Tug'ilganlar		O'lganlar		Aholining tabiiy o'sishi	
	2021-y.	2022-y. <sup>1)</sup>	2021-y.	2022-y. <sup>1)</sup>	2021-y.	2022-y. <sup>1)</sup>
<b>Jami</b>	<b>26,1</b>	<b>25,2</b>	<b>4,9</b>	<b>4,1</b>	<b>21,2</b>	<b>21,1</b>
Navoiy sh.	24,8	34,1	5,7	5,0	19,1	29,1
Zarafshon sh.	25,0	23,7	3,9	2,9	21,1	20,8
G'ozg'on sh.	25,2	15,8	4,4	0,9	20,8	14,9
Karmana t.	28,3	25,7	5,2	4,7	23,1	21,0


<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot

	Tugʻilganlar		Oʻlganlar		Aholining tabiiy oʻsishi	
	2021-y.	2022-y. <sup>1)</sup>	2021-y.	2022-y. <sup>1)</sup>	2021-y.	2022-y. <sup>1)</sup>
Konimex t.	22,7	18,5	6,2	4,8	16,5	13,7
Qiziltepa t.	23,5	22,2	4,2	3,8	19,3	18,4
Navbahor t.	25,1	22,7	4,9	3,9	20,2	18,8
Nurota t.	29,1	23,9	5,3	4,6	23,8	19,3
Tomdi t.	15,3	15,7	4,2	4,5	11,1	11,2
Uchquduq t.	25,6	24,1	4,3	3,2	21,3	20,9
Xatirchi t.	29,1	25,8	4,7	3,7	24,4	22,1

**Viloyat boʻyicha koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni**  
(Yanvar- sentabr oylarida birlik)

	Koʻchib kelganlar		Koʻchib ketganlar		Migratsiya saldos	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022 <sup>1)</sup>
<b>Jami</b>	<b>7 325</b>	<b>6 842</b>	<b>8 737</b>	<b>7 058</b>	<b>-1 412</b>	<b>-216</b>
Navoiy sh.	2 994	3 184	2 459	2 182	535	1 002
Zarafshon sh.	69	34	1 133	757	-1 064	-723
Gʻozgʻon sh.	3	11	22	6	-19	5
Karmana t.	1 780	1 496	974	933	806	563
Konimex t.	399	302	452	232	-53	70
Qiziltepa t.	302	252	593	495	-291	-243
Navbahor t.	412	397	541	534	-129	-137
Nurota t.	221	177	643	515	-422	-338
Tomdi t.	280	215	172	61	108	154
Uchquduq t.	456	386	581	452	-125	-66
Xatirchi t.	409	388	1 167	891	-758	-503

**Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni**  
(Yanvar- sentabr oylarida birlik)



**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 842 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 7 058 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i manfiy 216 kishiga (2021- yilning shu davrida manfiy 1412 kishi) teng bo'ldi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig'i, Zarafshon shahri (manfiy 723 kishiga), Xatirchi (manfiy 503 kishiga), Nurota (manfiy 338 kishiga), Qiziltepa (manfiy 243 kishiga), Navbahor (manfiy 137 kishiga) va Uchquduq (manfiy 66 kishiga) tumanlarida kamayish kuzatildi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig'i Navoiy shahrida (1 022 kishiga), Karmana (563 kishiga), Tomdi (154 kishiga) tumanlarida oshgani kuzatildi.